

## Maktab O'Quvchilarida Vatanparvarlik Tarbiyasini Shakllantirishning Didaktik Imkoniyatlari

*Sh. N. Abduraxmanov<sup>1</sup>*

**Anatatsiya:** O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda didaktik imkoniyatlari, vatanparvarlik yuksak e'tiqod, vatan va millat oldidagi mas'uliyat, yuksak burch ekanli, Xalqimizning kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabati haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Vatanparvarlik, vatan va millat, e'tiqodli, bilimli, axloq-odobli yoshlar, "Ta'lism to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", zamonaviy dars.

Rivojlangan mamlakatlar tarixiy tajribasi shundan dalolat beradiki, ular taraqqiyot yo'liga qadam qo'yishlari bilan asosiy e'tiborni ta'lism tizimiga qaratganlar. Bizning mamlakatmiz ham xuddi shu yo'lni tanladi. Natijada bu siyosat tajribada o'zini oqlamoqda. Vatanparvar, e'tiqodli, bilimli, axloq-odobli yoshlar, malakali mutaxassislar aql-zakovat bilan ish yuritib, yurtimizning gullab yashnashiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Bu borada davlatimiz Prezidentining xizmatlari benihoya kattadir. U kishi shubhasiz istiqlolning ilk yillardanoq yoshlarga zamonaviy va milliylikka asoslangan ta'lism berish g'oyasini ilgari surdilar. Yoshlar tarbiyasida milliylik va zamonaviylikni ilg'or holda olib borish, shubhasiz ularni tarixdan ham kelajakdagi yangiliklardan ham bahramand bo'lishiga olib kelar edi. Ayniqsa, ularning eng ilg'or jihatlaridan bahramand bo'lish sohasiga alohida e'tibor qaratildi. "Ta'lism to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi va "2004-2009 yillarda maktab ta'limi rivojlantirish davlat umummilliy dasturi"ning qabul qilinishi, mamlakatimizda ta'lism sohasidagi islohotlarning davlat siyosatiga aylanganligi dalilidir. O'zbekiston Respublikasi hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta ga qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Ta'lism tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish uchun, o'quvchilarning xilma - xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, barkamol, ishbilarmon inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

Xalqimizning kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi o'z kasbinining mohir ustasi, bilimdoni bo'lmog'i lozim. O'qituvchi kasbiy axloq, odob normalarini mukammal egallagan bo'lsagina, u, kasb fidoyisi bo'la oladi. Bugungi kunda o'qituvchining ana shunday fidoyiligi har qachongidan ham muhim. Biz o'qituvchilar haqida so'z yuritayotganimizdan maqsad o'quvchilarda vatanparvarlikni shakllantiruvchi asosiy shaxs bu pedagoglar hisoblanadi. Shu bois bu borada ularning o'zlaridan fidoiy va vatanparvar shaxs bo'lishlarni taqozo etadi. Eng muhimi o'qituvchilar o'quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirishda pedagogik fanlarni chuqur o'zlashtirishlarini va zamonaviy dars usullaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishlarni talab etadi. Bugungi kunda zamonaviy darslarga qo'yilayotgan talablar ham kundan kunga kuchayib, ortib borayotgani hech kimga sir emas. Zamona viy dars ham o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yishi darkor.

Xulasa qilib aytganda, o'qituvchi ta'lism jarayonida har bir o'quvchining bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lism usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilish, o'quvchiga nisbatan talabchan bo'lish pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olish, ta'lism natijalarini dastlabki va keyingi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash, tahlil qilish va xulosalash kabilar. Xullas, o'qituvchi o'quvchilarda sog'lom e'tiqodni shakllantirishda keng ko'lamdagи didaktik bilimlarga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi, kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari darajasida ta'lism jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

### Adabiyotlar

- Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyoilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 4 avgust, 153-sont.
- Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O'zbekiston, 2017. 242b.
- Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. - T.: O'qituvchi, 1994. -428 b.
- Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. - T.: O'qituvchi, 2001. - 232 b.

<sup>1</sup> Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikl boshlig'i, katta o'qituvchi

5. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: ped.fan.nomz. dis-yasi. - T.: TDPU, 2001. -136 b.
6. Hasanboev J., Hasanboeva O., Turopova M. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. -112 b.
7. Ibragimova G.X. Kasb ta'limi tizimida talaba-yoshlar ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyasi asosida shakllantirish. - T.: Fan, 2005. -159 b.